

**JAHON ADABIYOTI ASARLARINI O‘QITISHNING TARBIYAVIY
AHAMIYATI (“GAROV” HIKOYASI MISOLIDA)**

Xudayberganova Diana Vladimirovna,
Urganch davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
<https://orcid.org/0009-0000-2398-1612>
e-mail: kudaybergenovadiana@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari ong-shuuriga badiiy adabiyotlarni o‘qitish orqali insoniylik fazilatlarini shakllantirish, ijobiy hislatlar ustida davomiy ishlab, jamiyatga nafi tegadigan kelajak-avlodni tarbiyalash haqida fikr yuritildi. Xususan jahon adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan, nasriy turning hikoya janrida salmoqli ijod qilgan, rus adibi Anton Pavlovich Chexovning “Garov” hikoyasi tahlilga tortildi. Muhokama davomida moddiy taraflama moliyaviy erkinlikka ega keksa bankir va umrining ayni gullagan davri, ya’ni 25 yoshli yurist o‘rtasidagi garov, 15 yillik tutqunlikning ijobiy va salbiy tomoni haqida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: Hikoya, ilm, falsafa, ilohiyot, yangi tillarni o‘rganish, din, kitob, aql, zakovat, lafz, garov, dunyoni anglash.

Abstract. This article discusses the formation of human qualities in the minds of secondary school students through the teaching of fiction, the continuous work on positive qualities, and the upbringing of a future generation that will benefit society. In particular, the story "The Pledge" by the Russian writer Anton Pavlovich Chekhov, one of the great figures of world literature, who created a significant work in the prose narrative genre, was analyzed. During the discussion, the positive and negative sides of the pledge, 15 years of imprisonment, between an elderly banker with material financial freedom and a 25-year-old lawyer in the prime of his life, were discussed.

Keywords: Storytelling, science, philosophy, theology, learning new languages, religion, books, intelligence, words, pledges, understanding the world.

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование гуманных качеств в сознании учащихся средних школ посредством обучения их художественной литературе, постоянной работы над положительными чертами характера, а также воспитания будущего поколения, которое принесет пользу обществу. В частности, был проанализирован рассказ «Залог» русского писателя Антона Павловича Чехова, одного из крупнейших деятелей

мировой литературы и значимой фигуры в жанре прозаического повествования. В ходе обсуждения обсуждались положительные и отрицательные стороны 15-летнего тюремного заключения, ситуация заложничества между пожилым банкиром, имеющим материальную финансовую свободу, и 25-летним юристом в расцвете сил.

Ключевые слова: Рассказывание историй, наука, философия, теология, изучение новых языков, религия, книги, интеллект, слова, клятвы, понимание мира.

Insoniyat paydo bo'lganidan, to bugungi kunga qadar kechagi kunidan bir pog'ona baland bo'lishga, avvalgi holatidan yuqoriga ko'tarilishga harakat qilib, izlanish olib boryapti. Uni aynan bir sohaga taalluqli deb ayta olmaymiz. Chunki unga san'at, madaniyat, adabiyot, falsafa, raqamli texnologiyalar va boshqa ko'plab yangiliklarni misol qilib aytsak bo'ladi. Badiiy adabiyotga to'xtaladigan bo'lsak, har qaysi asrda, har qanday millatning o'zining zabardast vakillari bo'ladi. Xususan Sharq namoyondalari bilan birgalikda G'arb namoyondalari o'zlarining asar yozishi bilan yetakchiligini, ulardagi g'oya va mavzuning inson hayoti, tarbiyasi va faoliyati davomida nechog'lik ahamiyatli ekanligi bir necha asrlardirki o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymayapti. Bu borada XVIII-XIX asrlarda yashagan, jahon badiiy merosiga munosib hissa qo'shgan, rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexovning o'rni beqiyosdir. Adib uzoq umr ko'rmagan bo'lishiga qaramasdan, yaratgan asarlari bilan ismini butun umr adabiyotga abadiyatga muhrlab qoldirgan desak adashmagan bo'lamiz. Yozuvchining dastlabki olgan ta'limi tibbiyot bilan bog'liq bo'lgan. Ya'ni Moskva universitetini 1884-yili tugatib, uyezd vrachi bo'lib ishlashni boshlaydi [3.422]. Aynan o'sha davrda nasriy yo'lda yozilgan asarlari orqali taniladi. Shu o'rinda shuni aytishimiz joizki, tibbiyotdan ko'ra adabiyot Chexovni har taraflama yuksaklikka ko'targan. Buni asarlarining qo'lma-qo'l bo'lib ketganidan, dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilinganidan ham bilib olish qiyin emas. Buyuk ma'rifatparvar jadid bobomiz Abdulla Qodiriy adabiyot, xususan yozuvchilar haqida quyidagicha xitob qiladi: "Yozuvchini, garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o'qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g'oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida, asosan, o'z tabiatini, ruhini tasvirlaydi"[5.105]. Chexovning aksariyat asarlarida mol-davlatga ruju qo'ymaslik, inson qanchalar boylik to'plashi bilan emas, dunyoqarashining kengligi, aql-u zakovatining yuqori darajada ekanligi, ko'zi to'qligi kabi ijobiy hislatlarni yoritib berishga harakat qilgan. Buni "Garov" hikoyasi orqali ham ko'rib chiqishimiz mumkin. Asar hajm jihatidan qisqa bo'lishiga qaramasdan, teran va falsafiy tafakkurga ega ekanligi bilan ham kitobxonni qiziqtirib qo'yishi aniq. Ushbu hikoya zamirida ilohiyot,

ma'naviy kamolot, dunyoda yashab turgan har oni uchun shukrona keltirish kabi tuyg'ular ulug'lanadi. Inson umrining har soniyasidan unumli foydalangan holda yangi bilimlarga har doim ochiq bo'lish kerakligiga undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" asarida quyidagi fikrni keltirib o'tadi: "Kornelning "Sid" nomli tragediyasida "Nimadir yetilishi uchun vaqt kerak" [3.256]. Ya'ni inson o'zida ijobiy fazilatlarni shakllantirish, yomon illatlarni yo'qotish uchun biroz muddat kerak bo'ladi. Jamiyatning har bir a'zosi o'zi bilan shu tarzda shug'ullanib, vatan ravnaqiga hissa qo'shman degan oliy niyat bilan yashasa, u jahondagi yetakchi mamlakatlar ro'yxatida yuqori pog'onalarda turishi aniq. Buni hikoyaning bosh qahramoni orqali ham bilib olsak bo'ladi.

"Garov" hikoyasining asosiy 2 obraz orqali yoritilib berilishi, asarning badiiy estetik qiymatini oshirgan. Buni qarib qolgan, keksa bankir o'z xonadonida ziyofat uyushtirib, mehmonlar oldidagi bahs orqali, to'satdan ayni gullab yashnagan umrini bir hujrada o'tkazgan yigitchaning taqdiri orqali asar yanada jonlantirilgan. Bankir va huquqshunos o'rtasidagi sulh aslida besh yil muddatga tuzilajak bo'lib turgan bir pallada, yigitning: "Men u yerda besh yil emas, o'n besh yil o'tira olaman" [5.154] degan lafzi orqali ozodlikdan o'n besh yilga mahrum bo'lishiga majbur bo'ladi. Ikki million evaziga tutqunlikka asir bo'lgan yigitchaning holiga hamma achinadi. Biroq, bu huquqshunos uchun aynan yangi eshiklarning kaliti bo'ldi desak nur ustiga a'lo nur bo'lgan bo'ladi. Chunki yosh yigit asirlikda qolgan har daqiqasidan oqilona foydalanishga urinadi. Dastlabki yillarida yengil-yelpi kitoblarni mutolaa qila boshlaydi. Yildan-yilga yigitning yoshi katta bo'lishi bilan birgalikda, dunyoqarashi ham kengayib boradi. Hayotga boshqacha shukrona ko'zi bilan boqib, haqiqiy bilim insoni bo'lib shakllana boradi. Tutqunlikda adabiyot, din, falsafa, san'at, judayam ko'plab tillarni o'rganish orqali o'zini ma'naviy boy, aqliy yetuk inson qilib tarbiyalaydi. Buni Otabek Xasanov o'zining "Liderlar kitobi" asarida buni quyidagicha ta'riflaydi: "Ha, ilm — yagona najot yo'li, har qanday nochorlik va kambag'alikdan qutulish, yorqin kelajakka umid qilishga kuch beradigan mo'jizadir" [2.38]. Bu huquqshunosning belgilangan muddat ichida tushkunlikka tushish o'rniga, har taraflama mukammal bo'lishga harakat qilib, buni uddasidan chiqqaniga misol qilib aytsak bo'ladi. Aslida moddiy boylikka ega inson boy emas, balki, ma'naviy tomonlama bilimga ega, aqliy salohiyati yuqori, kitob o'qish orqali hayotni anglab yetgan, o'zgalarga beminnat yordam berishga tayyor odam haqiqiy oltin qalb egasi, ruhiyati badavlat inson deya ayta olamiz. Chunki o'sha biz boylik, mol-davlat deb ataydigan narsalarni bir soniyada qo'ldan chiqarib yuborish mumkin. Ammo, ma'naviy boylikka ega inson hech qachon uni yo'qotib qo'ymaydi. Buni

Jeymas Klir o‘zining “Atom odatlar” kitobida quyidagicha keltirib o‘tiradi: “Odatlar ildiz otib bo‘lganidan so‘ng ularni butunlay qo‘porib tashlash deyarli imkonsiz bo‘lib qoladi” [1.112] Yosh huquqshunosning xatti-harakatlarini odatlar yig‘indisi deb atasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yildan-yilga har qanday sohada o‘zini sinab ko‘rish orqali faylasuf darajasiga yetib kelgani buning yaqqol isbotidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, inson qanday yashashidan qat’iy nazar hayotining oxirida afsus-nadomat, pushaymonlik hissi bilan, yoki o‘tkazgan umridan lazzatlanib, baxtiyor holatda dunyodan ko‘z yumushi o‘zining qo‘lidadir. To‘g‘ri yosh yigitcha 15 yil davomida erkin, o‘z xohishiga ko‘ra yashamadi. Hayotining eng yaxshi yillarini asirlikda o‘tkazdi. Biroq, u ko‘pchilik qila olmaydigan buyuk ishni qildi. O‘z ustida uzluksiz ishladi, kechagidan yaxshi bo‘lish uchun tinimsiz harakat olib bordi. Muddat yakunlanadigan, ya’ni so‘nggi kun kelganida esa 2 million miqdoridagi katta yutuqdan voz kechib, muddatidan oldin qochib ketib, garov shartini buzadi. Uning asosiy maqsadiga erishishi, bu dunyoda puldan ham buyuk, undan ham yuqori o‘rinda turadigan narsalarni bilib olgani deya ayta olamiz. Biz o‘ylaymizki, bu asarni o‘qish davomida, o‘quvchilar yashab turgan har lahzasidan oqilona foydalanib, o‘qib, izlanib, yangi bilimlar olib o‘zini yangidan kashf qilishga harakat qiladi. Ilm har narsadan ustun turishiga yana bir bora iqror bo‘ladi. Biz ishonamizki, ushbu asar yana bir necha yil davomida kitobxonlarning eng sevimli kitoblar ro‘yxatida turadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жеймс Клир Атом одатлар —Тошкент: Nihol, 2022. —300 б
2. Хасанов.О. Лидерлар китоби —Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2020. —340 б
3. Hamrayev.M., Sariyev.Sh. Adabiyot fanidan ma’lumotnoma —Toshkent: Yangi kitob nashriyoti, 2020. —6506 b
4. Mirziyoyev.Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi —Toshkent: O‘zbekiston, 2019. — 398 b
5. To‘xliyev.B, Karimov.B, Usmonova.K. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua (II qism). —Toshkent: Davlat-ilmiy nashriyoti, 2018. —200 b